


**Yondosh mavzu:**  
maktab.

Metr, detsimetr,  
santimetr, millimetr.



1. Rasmdagi kesma uzunligini aniqlang. Uni millimetr, santimetr, detsimetr va metrlarda ifodalang.




Angliya va AQSHda uzunlikni o'lchash uchun duym ishlatiladi. Chizg'ich yordamida duym santimetr va millimetrlarda qanday ifodalanishini aniqlang.

**Kesmaning uzunligi** – bu birlik kesmalarning unga mos keladigan (o'lchovlar) soni.

Turli vaqtlarda barmoq falangi uzunligi (duym yoki vershok), qo'l uzunligi (tirsak, arshin), tovon uzunligi (fut) uzunlik o'lchovi sifatida qabul qilingan.



Hozirgi vaqtda butun dunyoda odamlar umumiy uzunlik o'lchov birligi – metrdan foydalanadilar. Bir metrni teng qismlarga bo'lib, detsimetr, santimetr va millimetr olinadi.



## 72. Uzunlik birliklari



2. Uzunliklarni berilgan o'lchov birliklarida ifodalang:
- santimetrlarda: 400 mm, 3 dm 6 cm, 58 m 6 dm 2 cm.
  - millimetrlarda: 7 cm, 5 dm 7 cm 1 mm, 8 m 14 cm 3 mm.
  - detsimetrlarda: 70 m, 820 cm, 56 000 mm, 3 m 4 dm 60 cm.



3. Ifodalarni sxema bo'yicha yozing va ularning qiymatlarini hisoblang.

4 dm 5 cm

+

67 cm 3 mm

.

5

-

4 m 3 dm 5 mm

7 m 8 cm

+

24 dm 6 mm

.

4

:

8

2 dm 9 cm 7 mm

.

13

+

42 cm 1 mm

-

2 m 7 dm 2 mm



4. To'g'ri plastmassa chizg'ichning massasi 25g, uchburchak chizg'ichni esa 30g. Maktab uchun 2300 ta uchburchak chizg'ich, undan ikki marta ko'p to'g'ri chizg'ich sotib olindi. Xaridlarning umumiy massasi qancha? Bu xaridlarni maktabga olib borish uchun qanday transportga buyurtma berish kerak?



20 kg gacha





21 kg dan 100 kg gacha



101 kg dan 300 kg gacha




5. Qaysi likopchanning diametri eng katta?





6. Chiziqni daftaringizga kataklar bo'yicha ko'chirib chizing. O'ng tomonda simmetrik chiziqni tasvirlang. Hosil bo'lgan shaklning perimetrini katak va santimetrlarda toping.



7. Maktab xonasining bo'yi 7 m 15 cm, eni esa 2 m 8 dm qisqa. Xonaning perimetri bo'ylab plintus yotqizilishi kerak, eni 85 cm bo'lgan eshik bundan mustasno.
- Qancha plintus sotib olish kerak?
  - Plintus 2000 mm li planka holda sotiladi. Xona uchun nechta planka kerak bo'ladi?



8. O'tgan yili maktabda qizlar o'g'il bolalardan 42 nafar ko'p o'qigan. Bu yil maktabga yana 18 nafar o'g'il va 15 nafar qiz bola qabul qilindi. Maktabda kimlar ko'proq va qanchaga ko'p?



9. Ko'rsatma bo'yicha amallarni bajaring.
- 4 m 27 cm ga 72 dm 3 cm ni qo'shing.
  - Hosil bo'lgan natijani 50 marta kamaytiring.
  - Hosil bo'lgan natijaga 35600 mm ni qo'shing.
  - Hosil bo'lgan natijani metr, detsimetr va santimetrlarda ifodalang.
  - Olingan natijadan 1 m 4 dm 7 cm ni ayiring.



10. Maktabda 876 nafar o'g'il bola va ulardan 48 nafar ko'p qiz bola o'qiydi. Dushanba kuni 27 nafar o'g'il bola va ulardan uch marta kam qiz bola maktabga kelmadi. Dushanba kuni maktabda qancha o'quvchi bo'lgan?